



SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI UCHRASHUVI NATIJALARI

Raxmatillayev Jasurbek Raxmatilla o'g'li¹

¹TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali o'qituvchisi
Email: jasurbekraxmatillayev2299@gmail.com

Yusupjonova Maftuna Sodiq qizi²

²TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali talabasi
Email: maftunayusufjonova07@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7146522>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022
Accepted: 03rd October 2022
Online: 05th October 2022

KEY WORDS

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, yaxshi qo'shnihilik, mintaqaviy xavfsizlik, savdo, energetika, transport, turizm va madaniy aloqalar.

Bugungi kunda jahon davlatlari miqiyosida bo'layotgan turli kelishmovchiliklarni bartaraf etish, davlatlar o'rtasida o'zaro siyosiy, iqtisdiy aloqalarni mustahkamlash va Shanxay Hamkorlik Tashkilotining kelgusidagi jahon siyosatidagi o'rnini oshirish maqsadida joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 22-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu sammit pandemiya vaqtidagi virtual uchrashuvlardan so'ng, bo'lib o'tgan davlatlar o'rtasidagi birinchi uchrashuv bo'ldi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi sammitini Samarqand shahrida o'tkazilishi va bu sammit davlatlar o'rtasidagi muhim uchrashuv bo'lishi munosabati bilan Samarqand shahrida me'moriy, bunyodkorlik va obodonlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston

ABSTRACT

Maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 22-sonli yig'ilishi Samarqand viloyatida 15-16-sentabr kuni o'tkazilganligi va ushbu yig'ilish natijasida erishilgan hujjatlar keltirilgan. SHHTning iqtisodiy va xavfsizlikka oid faoliyati yoritilgan. Bundan tashqari Sammitda davlatlar o'rtasida muhim sohalarida jami 44 ta bitim, konsepsiya, dasturlar va qarorlar qabul qilinganligi to'g'risida va ularning davlatimiz hayotidagi tutgan o'rni xususida fikr yuritilgan. Toshkentdagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi ochilishi kabi masalalar yoritilgan.

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-yilda Samarqand shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi sammitini o'tkazishga tayyorgarlik ishlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Samarqanda sammit uchun "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasi bunyod etildi. Bu majmuada O'zbekistonning qadimiy shaharlari qiyofasi, turli xalqlar bilan do'stlik aloqalari, milliy an'analarimiz aks ettirilgan. Barcha tashrif buyurgan davlat rahbarlari, sammit ishtirokchilari "Boqiy shahar" majmuasiga tashrif buyurishdi hamda ularda tarix va bugungi kun uyg'unligi katta taassurot qoldirdi. Bu kabi madaniy meros obyektlari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega va sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Samarqandda bo'lib o'tgan sammit, SHHT mamlakatlari o'rtasida sayyohlar oqimini ko'paytirish,



turizmni yaxshilash uchun investitsiyalarni keng jalb etish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratish va madaniy aloqalarni yanada yaxshiroq yo'lga qo'yish uchun eshik ochib berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Samarqand shahrida o'tkazilgan SHHT sammiti turizmning yanada taraqqiy etishiga ham xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

Yurtimizda o'tkazilgan sammit nafaqat Sharq mamlakatlarini balki, G'arb mamlakatlarining ommaviy axborot vositalarining ham e'tiborini tortdi. Bunga sabab, Rossiya davlat rahbari va Xitoy rahbarining tashrifi hamda, Eronning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga rasman kiritilishi bo'ldi. Eron uchun SHHT ga qo'shilish ham iqtisodiy ham siyosiy sohada muvaffaqiyatli bo'ldi. Eron prezidenti Ibrohim Raisi bo'lib o'tgan sammitda so'zga chiqib, barcha davlatlar bilan yaqin aloqa va o'zaro hamkorlikni davom ettirish muhimligini aytib o'tdi. Eron Islom Respublikasining SHHTga to'laqonli a'zo sifatidagi majburiyatlari to'g'risidagi Memorendum imzolandi.

Bundan tashqari, Samarqanddagi sammitda Bahrayn davlati, Maldiv Respublikasi, BAA, Quvayt davlati muloqot bo'yicha yangi hamkorlar sifatida kiritish jarayonini boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Sammitda davlatlar o'rtasida muhim sohalarda jami 44 ta bitim, konsepsiya, dasturlar va qarorlar qabul qilindi. Bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- SHHTga a'zo davlatlarning uzoq muddatli yaxshi qo'shnichiligi, do'stligi va hamkorligi to'g'risidagi shartnoma qoidalarini 2023-2027 yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks harakatlar rejasi to'g'risida;
- SHHTga a'zo davlatlarning o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish va samarali

transport yo'laklarini yaratish bo'yicha konsepsiyasi to'g'risida;

- "SHHTning ezgu niyat elchisi" faxriy unvoni to'g'risidagi nizom to'g'risida;
 - SHHTga a'zo davlatlarning o'zaro hisob-kitoblarida milliy valyutalar ulushini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" to'g'risida;
 - Eronning SHHTga a'zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolanganini to'g'risida;
 - Belarus Respublikasini SHHT a'ziligiga qabul qilish jarayonini boshlash to'g'risida;
 - Maldiv Respublikasi, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Myanma Ittifoqi Respublikasi, Quvayt Davlatiga SHHTning muloqot bo'yicha sherigi maqomini berish to'g'risida;
 - Varanasi shahrini (Hindiston) 2022-2023 yillarda SHHTning turizm va madaniy poytaxti deb e'lon qilish to'g'risida;
 - SHHT kotibiyati va Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT (YUNESKO) o'rtasida memorandumni imzolash to'g'risida;
 - SHHT Bosh kotibining tashkilotning o'tgan yilgi faoliyati hamda SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Kengashining 2021 yilgi faoliyati to'g'risidagi hisobotlari haqida;
 - SHHT Davlat rahbarlari kengashi qarorlarining amal qilishini bekor qilish to'g'risida;
 - SHHT faoliyatini takomillashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.
- Shuningdek, SHHT Davlat rahbarlari kengashining:
- iqlim o'zgarishiga nisbatan javob harakatlari to'g'risida;
 - ishonchli, barqaror va diversifikatsiyalashgan yetkazib berish zanjirlarini ta'minlash to'g'risida;



– global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash to'g'risida;

– energetik xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi bayonotlari qabul qilindi.

Bundan tashqari, tadbir doirasida quyidagi hujjatlar imzolandi:

– Eronning SHHTga a'zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to'g'risidagi memorandum;

– SHHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida xizmatlar savdosi sohasidagi hamkorlikning hadli asoslari;

– SHHT mamlakatlarining vakolatli organlari o'rtasida muzey ishi sohasidagi hamkorlik to'g'risida memorandum;

– SHHT mamlakatlarining vakolatli organlari o'rtasida o'simliklar karantini sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– SHHT mamlakatlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi hamkorligi dasturi;

– SHHT mamlakatlarini infratuzilmaviy rivojlantirish dasturi;

Shuningdek, Prezident farmoni bilan Toshkentdagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi ochildi, Tashkilotga a'zo davlatlar temir yo'l ma'muriyatlari rahbarlarining uchrashuvlari mexanizmi yo'lga qo'yildi, Samarqanddagi Ipak yo'li xalqaro turizm instituti barpo etildi. Bu poytaxtimizda muqaddam ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasiga qo'shimcha tuzilmalar sifatida O'zbekistonning ahamiyatini yanada kuchaytirishiga hissa qo'shadi. Sammit doirasida O'zbekiston uchun muhim bo'lgan Xitoy-Qirg'iziston- O'zbekiston temir yo'li qurilishi to'g'risidagi uch tomonlama Bitimning imzolanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qayd etish lozimki, kelishvni O'zbekiston transport vaziri

Ilhom Mahkamov, Qirg'iziston transport va kommunikatsiyalar vaziri Erkinbek Osoyev va Xitoy taraqqiyot va islohotlar davlat qo'mitasi raisi Xe Lifen imzolagan. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li orqali Markaziy Osiyoning Janubi-Sharqiy, G'arbiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga chiqish imkoni ochiladi.

Yana bir muhim uchrashuv prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan Hindiston Bosh vaziri Narendra Modini ikki tarafdin o'zaro savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash, tibbiyot, IT va Hindistondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Katta loyihalar qatoriga "Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li kabi qo'shma infratuzilma loyihasini kiritishimiz mumkin. Bu loyiha orqali biz, ijtimoiy-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya vazifalarini hal qilibgina qolmasdan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga ham katta hissa qo'shishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz lozimki, Samarqand sammiti yuksak saviyada o'tdi, davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli bo'lgan muhim kelishuvlarga erishildi. Davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, tenglik, manfaat, o'zaro madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish tamoyillari ilgari surildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni maqsadlaridan biri ekanligi belgilangan, Bundan tashqari xavfsizlik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari ham oldingi o'rinda turadi lekin bizning fikrimizcha a'zo davlatlarni iqtisodiy rivojlantirishga yuqori saviyada urg'u berilsa hamma davlatlar uchun foydali bo'ladi. Yurtimizda o'tkazilgan sammit SHHT ga a'zo davlatlar o'rtasida siyosat va



mintaqaviy xavfsizlik, savdo, energetika, transport, turizm va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga zamin yaratdi. ShHT sammitining yuqori darajada o'tishiga xizmat qilgan bunyodkorlik ishlari kelgusida ham, O'zbekistonda turizm

rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonamiz. Bu sammit keng qamrovli masalalarni o'z ichiga olgan, mintaqaviy muammolarni hal qilishda muhim o'rin egalladi desak mubolag'a bo'lmaydi.